

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK VA KOGNITIV TILSHUNOSLIK  
FANLARIDA “KONSEPT” VA “TUSHUNCHA

Komilova Xonzoda Muzaffar qizi  
ADCHTI ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

MAQOLA  
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 11.10.2024  
Revised: 12.10.2024  
Accepted: 13.10.2024

KALIT SO‘ZLAR:

Konsept, tushuncha,  
lingvomadaniyatshunoslik,  
kognitiv tilshunoslik,  
tafakkur, madaniyat,  
semantika

Ushbu maqolada lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tilshunoslik fanlarining kesishgan nuqtasida “konsept” va “tushuncha” atamalarining ilmiy mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda konseptning til, ong va madaniyat bilan o‘zaro aloqadorligi, shuningdek, uning kognitiv va lingvokulturologik jihatlarini ko‘rib chiqilgan. Muallif turli olimlarning nazariy qarashlarini tahlil etgan holda, konseptni inson tafakkurining asosiy birliklaridan biri sifatida izohlaydi. Maqolada kognitiv yondashuvning tilshunoslikdagi o‘rni, madaniy konseptlar tizimining shakllanishi hamda tushunchaning ongdagi ifodasi haqida xulosalar keltirilgan.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab til, ong va madaniyatni kompleks tarzda o‘rganish g‘oyasi lingvistik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayon fan va tafakkur taraqqiyotining mahsuli bo‘lib, til, ong va madaniyatning o‘zaro uzviy bog‘liqligini namoyon etadi hamda lingvokulturologiya fanining shakllanishiga zamin yaratdi. Mazkur yo‘nalishning asosiy vazifasi til va madaniyat kesishgan nuqtalarda yuzaga keluvchi hodisalarni tahlil qilishdan iboratdir. Shuningdek, konsept semantik jihatdan so‘zning leksik ma’nosidan kengroq va chuqurroq mazmunga ega bo‘lib, bu holat, avvalo, uning mental birlik sifatida qaralishi bilan izohlanadi.

Lingvomadaniyatda madaniyat konseptlari alohida tadqiq etiladi. Madaniyatning asosiy konseptlari jamoaviy til ongida muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyat asosiy konseptlari deganda mavhum otlar, xususan, vijdon, taqdir, qismat, iroda, gunoh, qonun, erkinlik, ziyolilar, vatan va h.k. tushuniladi. Madaniyat konseptlarini A.Y. Gurevich ikki guruhga: “fazoviy” yoki falsafiy kategoriyalar, ya’ni madaniyatning universal kategoriyalari (vaqt, sabab, makon, harakat, o‘zgarish) hamda ijtimoiy

=====  
*kategoriyalar*, ya'ni madaniyat kategoriyalari (mehnat, haqiqat, boylik, erkinlik, huquq, mulk) ga ajratadi.<sup>6</sup>

E.S. Kubryakova rahbarligida yaratilgan "Kognitiv atamalarning qisqacha lug'ati"da, konsept uchun ma'lumot berib o'tadi: Konsept (lotinchadan olingan "conceptual" – ma'no, mazmun, tushuncha) – inson ongining aqliy zaxiralari va birliklarini, shuningdek, uning tajribasi va bilimni aks ettiruvchi tushuncha; ma'lumotlarni tavsiflash uchun ishlatiladigan atama; xotira, aqliy so'zlar va miya bilan bog'liq faol birlik - inson psixikasida aks ettirilgan olam sahnasining kontseptual tizimi, ya'ni insonning dunyo obyektlari haqidagi g'oyalari, fikrlari, taxminlari va bilimlari haqidagi ma'lumotlar.<sup>7</sup>

Y. Stepanov konseptuallashtirilgan sohani madaniy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan so'zlar, narsalar, mifologemalar va marosimlarning yagona tasvirini aks ettiruvchi madaniyat sohasi sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, bunday konseptuallashtirilgan makon doirasida so'zlar bilan marosim obyektlari, so'zlar bilan mifologemalar o'zaro semantik aloqadorlikda bo'lib, bir-birini timsol tarzida ifodalay oladi yoki almashtiruvchi funksiyani bajaradi. Madaniy makonda yuz beruvchi ushbu konseptual integratsiya jarayoni, muallif tomonidan, *narsalar va so'zlar o'rtasidagi sinonimizatsiyasi* shaklida namoyon bo'luvchi konseptualizatsiya deb ta'riflanadi.<sup>8</sup> Stepanov shuningdek, konseptsiya qatlamli tuzilishga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning nazarida, bu qatlamlar jamiyatning turli tarixiy bosqichlaridagi madaniy tajriba mahsuli bo'lib, konseptsiya tarkibida asosiy (dominant) xususiyat, qo'shimcha yoki passiv (tarixiy) xususiyatlar hamda ichki shakl mavjud. Ichki shakl, ya'ni etimologik asos, boshqa barcha semantik qatlamlarning shakllanishida poydevor vazifasini bajaradi. Ushbu nazariy yondashuvning amaliy ifodasini biz tadqiqotimizning ikkinchi bobida tahlil qilinadigan "boylik" konsepti misolida ko'rib chiqamiz.

V. Nezornak<sup>9</sup> ta'kidlaganidek, "Tushuncha bir so'z bilan mavhumlashgan

va dunyoning milliy manzarasining bir parchasini aks ettiruvchi ajoyib obrazdir.

Lingvistik-kognitiv tushunchaga ko'ra, tushunchaning munosabati og'zaki ifoda vositalari bilan bog'liq. Til tushunchalarni shakllantirmaydi, balki ularni almashish va

---

<sup>6</sup> А.Я. Гуревич. Дискурс и личность: эволюция коммуникативной компетенции. –М.: Лабиринт, 2004. –С.320.

<sup>7</sup> Кубрякова Е.С. Концепт / Е.С. Кубрякова, В.З. Демьянков, Ю.Г. Панкрац, Л.Г. Лузина // Краткий словарь когнитивных терминов. – М., 1996. С.90-92.

<sup>8</sup> Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры: Опыт исследования. – М.: Яз. рус. культуры, 1997. – 824 с.

<sup>9</sup> Нерознак В.П. От концепта к слову: к проблеме филологического концептуализма // Вопросы филологии и методики преподавания иностранных языков. – Омск, 1998.

=====

muloqot jarayonida muhokama qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tushunchalar shaxsning real mentalitetida mavjud, shuning uchun ular muloqot qilish uchun og'zaki, ya'ni til vositalari bilan ifodalanishi kerak. Tilda konsepsiyani alohida so'zlar va iboralar orqali ham, jumlar va butun matnlar orqali og'zaki ifodalash mumkin, bu esa tushunchaning o'zini belgilaydi. Og'zaki shaklni tanlash so'zlovchining shaxsiy ma'nosi, aqliy ifodasi va o'zaro bog'liq bo'lgan ichki leksikaga bog'liq.

Kognitiv tilshunoslik tilni falsafadagi bilish nazariyasi bilan bog'lab, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarining ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini ilmiy tadqiq etuvchi soha hisoblanadi. Kognitiv so'zi inglizcha "cognize" - bilmoq, anglamoq, tushunmoq demakdir. Kognitiv tilshunoslik "chegaradosh fan" bo'lib, kognitologiya, kognitiv psixologiya, psixolingvistika, lingvistika kabi sohalar to'qnashuvida vujudga keldi. 1975-yilda J.Lakoff va S.Tompsonning maqolasida "kognitiv grammatika" termini paydo bo'ldi<sup>10</sup>. 80-yillarda Yevropaning an'anaviy tilshunosligida kognitiv tilshunoslik qaror topdi. Rus tilshunosligiga esa kognitiv lingvistika V.V. Petrov va V.I.Gerasimov<sup>11</sup> larning ilmiy maqolasi bilan kirib keldi. Rus tilshunosligining yana bir atoqli vakili E.S.Kubryakova quyidagicha fikr bildiradi: "Kognitologiya ko'p qirrali fan sohalaridandir. Uning doirasida shakllangan tilshunoslik, o'z navbatida, murakkab vazifa ijrosini ko'zlaydi, lisoniy va bilim stukturalari o'rtasidagi munosabatlar hamda doimiy muqobilliklar tahlili,

izohi rejalashtiriladi"<sup>12</sup>.

Professor G'. M. Hoshimov "Kognitiv tilshunoslik – inson tomonidan borliq dunyo voqeligini til orqali anglanishi, o'rganilishi, ya'ni kontseptlar vositasida uning in'ikos etilishi, his va idrok qilinishi kabi inson miyasida kechuvchi murakkab kontseptual jarayonlar bilan bog'liq muhim yo'nalishdir"<sup>13</sup> deb ta'kidlaydi. Biz tadqiqotda kognitiv tilshunoslikda ko'p uchraydigan kontseptualizatsiya masalasiga to'xtalib o'tishni joiz topdik.

Kontsept – "lisoniy shaklga ega bo'lmagan sof ma'no bo'lib, bu inson

<sup>10</sup> George Lakoff : 1980: Metapfors We Live BY

<sup>11</sup> В.В. Петров и В.И. Герасимов На пути к когнитивной модели языкаю. «Новое в зарубежной лингвистике» Москва, Прогресс. 1988)

<sup>12</sup> Кубрякова Е.С О когнитивной лингвистики и семантики термина когнитивны// Вестник Воронежского государственного университета. –Воронеж, 2001.90-с

<sup>13</sup> Хошимов Г. М. К теории концептов и их таксономии в когнитивной лингвистике // Систем структур. Tilshunoslik muammolari. Filologiya fanlari doktori, professor N.K.Turniyozov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan Respublika ilmiynazariy konferentsiyasi materiallari. –Samarqand, 2010

tafakkuridagi ilk ma'no va prototipdir".<sup>14</sup> N.D. Arutyunova kontseptni real borliqni aks ettiruvchi turli omillardan iborat bo'lgan amaliy falsafiy tushuncha deb hisoblaydi<sup>15</sup>.

D.S. Lixachev kontsept – bu alohida yaxlit mazmunga ega bo'lgan va real holatda kichikroq fikrlarga ajralmagan tafakkur birligi, ya'ni, ichki qatlamning elementar tomonidir deb hisoblaydi<sup>16</sup>. "Kontseptlar – fikr va bilimlarning kognitiv asosiy quyi tizimlarini tashkil etuvchi ma'nolardir"<sup>17</sup>.

A. Vejbitskaya kontseptni "ideallik" dunyosidan obyekt sifatida taqdim etadi. Muallif "kontsept – bu bilishga oid psixik struktura bo'lib, uning tashkil topish xususiyatlari voqelikni turli xil sifatlar birligida aks ettirish imkoniyatini beradi"<sup>18</sup> deb ta'kidlaydi.

N.F. Alefirenko kontseptni kognitiv (aqliy) kategoriya, bilimlar kvanti, tavsiflovchi-obrazli va baholashga yo'naltirilgan xarakterdagi murakkab, qat'iy strukturaga ega bo'lmagan semantik shakllanish deb hisoblaydi<sup>19</sup>.

S. X. Lyapin kontseptni ko'plab yangi ilmiy tushunchalar singari, kognitiv metafora orqali iste'molga kiritiladi deb ta'riflaydi va bu "keng ko'lamli ma'no parchasi", "borliqning semantik kvanti", "madaniyat geni" sifatida sharhlaydi<sup>20</sup>. Yu. S. Stepanov kontseptni "inson ongidagi madaniyatning bir bo'lagi"<sup>21</sup> deb hisoblaydi.

Konsept termini o'zbek tilshunoslari N. Mahmudov, Sh. Safarov hamda

A. E. Mamatov tomonidan batafsil izohlangan. Fikrimizcha, konsept ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilmadir. Shuningdek, u bir vaqtning o'zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etadi. Shu sababli konseptning tadqiqotchilar tomonidan subyektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy, badiiy konseptlar sifatida tiplarga ajratilganligini yagona mohiyatga turli jihatlardan

<sup>14</sup> Кубрякова Е.С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики. – 2004.- №1. – С. 6 – 17.

<sup>15</sup> Лакофф Дж. Когнитивное моделирование: (Из книги «Женщины, огонь и опасные предметы») // Дж. Лакофф // Язык и интеллект. – М., 1995. – С. 143 – 184

<sup>16</sup> Mamatov A.E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? / A. E. Mamatov // O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari // Prof. A.Nurmonov tavlludining 70 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2012.

<sup>17</sup> Qoraboyev J.B. Ingliz tilidagi «mubolog'a» kontseptini voqealantiruvchi frazeologik birliklarni o'zbek tiliga o'girish muammolari // J.B.Qoraboyev // Madaniyatlararo va ilmiy-texnik aloqalarda tarjimaning o'rni hamda roli: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – NamDU, 2014

<sup>18</sup> Nosirov O'.T. Rus va o'zbek tillari dunyo lingvistik manzarasida "Yil fasllari" kontseptosferasini aks ettirilishi // fil.f.f.d.(PhD) disser.– Buxoro, 2022 yil, - 154 bet.

<sup>19</sup> Лакофф Дж. Когнитивное моделирование: (Из книги «Женщины, огонь и опасные предметы») // Дж. Лакофф // Язык и интеллект. – М., 1995. – С. 143 – 184

<sup>20</sup> Ляпин С. Х. Концептология: к становлению подхода // Концепты. Архангельск, 1997.С.11-35.

<sup>21</sup> Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры // Опыт исследования. - М., 1997.С.40-43.

yondashuv sifatida baholash mumkin. Zotan, til tizimi yuqoridagi sifatlarni o'zida jamuljam etgan nihoyatda serqirra hodisalardan biri hisoblanadi<sup>22</sup>.

Y. N. Shvedova konsept tushunchasi ortida ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi<sup>23</sup>.

E. S. Kubryakova ta'kidlaganidek, "Konsept termini tafakkurni anglash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari uchun soyabon vazifasini bajaradi"<sup>24</sup>. Konsept tafakkur birligi hisoblanib, uning asosida tushuncha, ma'no va obraz yotadi hamda u yuksak darajadagi mazmunga egadir. Suqrotning "O'zingni angla" degan serma'no fikri har bir tarixiy davrda yangicha ma'no kasb etadi. Tafakkur qilish va anglashda insonning, eng avvalo, etnik kelib chiqishi, atrof-muhit, o'zi yashab turgan turmush tarzi sharoiti ta'sirida amalga oshadi.

## ADABIYOTLAR

1. Абдумажидов Ғ. А. ва бошқалар. Криминалистика: Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: «Адолат», 2003. – 266 б.

2. Абдурахмонов Ғ., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 352 б.

3. Авамилева Х.Д. «Жаргон», «Арго», «Сленг»: К вопросу о терминах // Формирование профессиональной компетентности филолога поликультурной образовательной среде. Материалы II Международной научно-практической конференции. Евпатория, 2019. – С.1-7.

4. Аскольдов С.А. Концепт и слово//Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология. – М.: Языки славянской культуры, 1997. – С.267-280.

5. Ашурова Д.У. Развитие когнитивный лингвистики в Узбекистане//Хорижий филология: Тил, таълим, адабиёт. –№3, 2016. – С.54-60.

<sup>22</sup> Худайберганава Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. ... диссер. автореф. – Тошкент, 2015. – Б. 11-12.

<sup>23</sup> Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С.603.

<sup>24</sup> Кубрякова Е.С О когнитивной лингвистики и семантики термина когнитивны// Вестник Воронежского государственного университета. –Воронеж, 2001.90-с

- =====
6. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологический семантике языка. –Воронеж: Изд-во Воронеж, ун-та, 1996. –104 с.
  7. Бабушкин А.П., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика и семасиология. – Воронеж: ООО Ритм, 2018. – 229 с.
  8. Бахронова Д. Оламнинг лисоний манзараси тасвирида концепт ва концептосфера. – Самарқанд давлат чет тиллари институти. Хорижий филология: Тил, адабиёт, таълим, 2019. – №3(72). – Б.62-68.
  9. Боброва Т.О. Когнитивный анализ концепта «Sin» (Грех) в Библийских текстах // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2017. – № 4. (70). – С. 59-62.
  10. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика: курс лекций по английской филологии. – Тамбов: Изд-во ТГУ, 2001. – 123 с.